

Korxonalar va tashkilotlar


(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida viloyatimizda 3612 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1153 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2756 ta (11,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27400 tani tashkil etgan.

Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,0 % savdoda, 20,2 % sanoatda, 8,8 % qurilishda, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,9 % axborot va aloqa hamda 26,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Andijonviloyati	28843	27400	100,0	100,0
Oltinko'l	1563	1397	5,4	5,1
Andijon	2013	1849	7	6,7
Baliqchi	1481	1426	5,1	5,2
Bo'z	710	700	2,5	2,6
Buloqboshi	719	708	2,5	2,6
Jalaquduq	1105	1069	3,8	3,9
Izboskan	1310	1277	4,5	4,7
Ulug'nor	570	567	2	2,1
Qo'rg'ontepa	1536	1311	5,3	4,8
Asaka	2592	2562	9	9,4
Marxamat	1282	1249	4,4	4,6
Shahrixon	2042	1786	7,1	6,5
Paxtaobod	973	936	3,4	3,4
Xo'jaobod	967	954	3,4	3,5
Andijon sh.	9528	9163	33	33,4
Xonobod sh.	452	446	1,6	1,6

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 3612 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 46,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (1051 ta), Asaka (312 ta), Shahrixon (231 ta) va Andijon (225 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Honobod shahrida (90 ta), Ulug'nor (91 ta) hamda Buloqboshi (104ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar Va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (813 ta), savdoda (724 ta), qurilishda (426 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (239 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (161 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida (141 ta) hamda axborot va aloqada (61 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016yil 1 dekabr xolatiga			2017yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	200	129,9	8,2	225	112,5	9,2	239	106,2	6,6
Sanoat	493	108,8	20,3	745	151,1	30,3	813	109,1	22,5
Qurilish	194	104,3	8,0	223	114,9	9,1	426	191,0	11,8
Savdo	964	208,7	39,7	550	57,1	22,4	724	131,6	20,0
Tashish va saqlash	74	97,4	3,0	135	182,4	5,5	212	157,0	5,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	132	113,8	5,4	104	78,8	4,2	141	135,6	3,9
Axborot va aloqa	40	133,3	1,6	55	137,5	2,2	61	110,9	1,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	29	70,7	1,2	72	248,3	2,9	161	223,6	4,5
Boshqa turlari	303	117,9	12,5	350	115,5	14,2	835	238,6	23,1


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 22710 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6096 ta, oilaviy korxonalar – 563 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15469 ta, va boshqalar 582 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 210 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga yoki 21,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 122 tasi qo'shma korxonalar, 88 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 87 ta (41,4 %), Andijon tumani 18 ta (8,6 %) Shahrihon tumani 17 ta (8,1 %) va Asaka tumanlari 14 ta (6,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z tumani 3 ta (1,4 %), Ulug'nor, Pahtaobod, Xo'jaobod tumanlari 4 tadan (1,9 %) va Jalaquduq tumani 5 ta (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 150 ta (71,4 %), savdoda 19 ta (9,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 13 ta (6,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 12 ta (5,7 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,5 %), tashish va saqlashda 2 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 ta (2,9 %) va qurilishda 7 ta (3,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi

sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 44 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Rossiya Federatsiyasi - 10 ta, Koreya Respublikasi - 5 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 5 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 3 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Belarusiya Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston, Hindiston, Buyuk Britaniya, Eron va Afg'oniston Respublikalarida - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 21 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8 ta, savdoda 7 ta, boshqa faoliyat turlarida 6 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, ulishi**

	2017 yilyanvar-noyabr		2018 yilyanvar-noyabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	20	64,5	21	47,7
Savdo	7	22,6	7	15,9
Qurilish	1	3,2	0	0
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3	9,7	8	18,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0	0	2	4,5
Boshqa turlari	0	0	6	13,6




Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22580 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 10,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 8097 tasi (35,9 %) Andijon shahriga, 2170 tasi (9,6 %) Asaka, 1561 tasi (6,9 %) Andijon hamda 1429 tasi (6,3 foiz) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22580 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6815 tasi (30,2 %) – savdoda, 5489 tasi (24,3 %) - sanoatda, 2398 tasi (10,6 %) - qurilishda, 1828 tasi (8,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1283 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1061 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 561 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 518 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2627 tasi (11,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2989 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 31,2 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (939 ta), Asaka (264 ta), Andijon (199 ta), Shahrihon(183 ta), Qo'rg'ontepa (173 ta) va Oltinko'l (171 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (64 ta), Honaobod shahri va Buloqboshi (79 tadan) hamda Bo'z (93 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (812 ta), savdoda (723 ta), qurilishda (426 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (239 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (61 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (141 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (159 ta), tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 dekabr holatiga 594 tani tashkil etib, ulardan 563 tasi yoki 94,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 21,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 44,9 % yoki 253 tasi sanoat, 23,1 % yoki 130 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,4 % yoki 64 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,2 % yoki 52 tasi savdo, 1,6 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 6 tasi qurilish, 0,9 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 7,1 % yoki 40 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat va qishloq va o'rmon xo'jaligi, eng kam axborot va aloqa, tashish va saqlashda.